

O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

“ZARBULMASAL” ASARIDAGI MAQOLLARNING MA’NO GURUHLARI VA ULARNING BADIY TALQINI

Majidova Diyora Abdumalik qizi

*ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik(o‘zbek adabiyoti)yo‘nalishi 2-kurs
magistranti*

diyoramajidova30@gmail.com


Annotatsiya: Maqolada Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida qo‘llangan maqollar ma’no jihatidan guruhlariga ajratilib, ularning badiiy talqini tahlil qilinadi. “Zarbulmasal”dagi maqollar xalqona tafakkur mahsuli sifatida ko‘rib, ularning allegorik va ramziy ma’nolari tahlil qilinadi. Ayniqsa, maqollarning qahramonlar nutqida qo‘llanishi orqali xarakter yaratish, ijtimoiy muhitni aks ettirish hamda muallifning estetik idealini ifodalashdagi roli asoslanadi. “Zarbulmasal” asarida maqollar nafaqat xalq donishmandligi namunasi, balki muallifning badiiy tafakkurini ifodalovchi, asarning g‘oyaviy-estetik yaxlitligini ta’minlovchi muhim poetik vosita ekanligi ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Gulxaniy, “Zarbulmasal”, maqol, semantik guruhlar, badiiy talqin, poetika, badiiy-estetik funksiya.

Maqollar biz uchun asrlarning sadosi, zamonlar aro ko‘prikdir. Maqollar bizga noma’lum kishilarning yurak dardlari, xalq iste’dodining chegara bilmas yetib kelgan maqollar xalq hayotiy tajribasidan kelib chiqadigan fikrlar, namunasidir. Maqol o‘ziga xos javohir. Moziydan bizning zamonimizgacha xulosalarning ixcham badiiy ifodasidir. Maqollarga jo bo‘lgan ma’nolar katta-katta kitoblarga tatigulikdir. Asl haqiqatni, keng mazmunni, dono fikrni o‘zida mujassamlashtirgan maqollar insonni mulohaza yuritishga majbur qiladi.

Maqollarni tadqiq etar ekanmiz, Muhammad Sharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarini obyekt qilib tanlaymiz. Mazkur asarda 400 dan ortiq maqol namunalarini ko‘rish mumkin. “Zarbulmasal”dagi maqollarning ma’noviy guruhlarini tasnif etish uchun asarda keltirilgan maqollarni bir qancha ma’noviy guruhlariga ajratdik. Bunday guruhlanishga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan 2005-yilda nashr etilgan “O‘zbek xalq maqollari” kitobidagi ma’noviy guruhlarini asos qilib oldik. Maqollarni tadqiq etishda uning izohi muhim ahamiyatga ega. Maqollar og‘izdan og‘izga o‘tib kelganligi sababli ba’zi maqollarning ma’nosi tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Shuning uchun “Zarbulmasal” asaridagi maqollarning ma’noviy xususiyatlari haqida fikr yuritamiz. Buning uchun dastlab maqollarning ma’noviy guruhlanishiga diqqat qaratamiz:

**“Zarbulmasal” asaridagi xalq maqollarining ma’noviy guruhlariga
ko‘ra tasnifi**




O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

	Ma'noviy guruhlar	“Zarbulmasal” asaridagi maqollar
1	Tajribakorlik va kaltabinlik	1. Qalovini topsa, qor yonar, qalovini topmasa qoqshol o'tin ham yonmas. 2. Ot olsang, uying birla kengash.
2	Yaxshilik va yomonlik	3. Yaxshiliq qil suvg'a sol, boliq bilur, boliq bilmasa xoliq bilur. 4. Yaxshi rafiq birla yursang, saodat toparsan, yomon rafiq birla yursang shaqovat.
3	Farovonlik va yetishmovchilik	5. Bor maqtansa topilur, yo'q maqtansa chopilur. 6. Ko'rpangga qarab oyoq uzat.
4	Or-nomus va nomussizlik	7. Uyat o'limdan qattiq. 8. Ermon yog'ochining egilgani singani, er yigitning uyalgani o'lgani.
5	Saxiylik va baxillik	9. Qo'chqor bo'lur qo'zining peshonasi do'ng bo'lur, Og'o bo'lur yigitning peshonasi keng bo'lur
6	Mardlik va nomardlik	10. O'z aybin bilgan marddir. 11. Ota so'rab netarsan erning o'zi bo'lg'on so'ng, Yo'l so'ragan nomarddur, otning ustuna ming'an so'ng.
7	Qadr-qimmat va qadrsizlik	12. Er tilagan yerda aziz. 13. Oltinning bitgan yerda qadri bor.
8	Naqd va nasiya	14. Halvo degan birla og'iz chuchimas.
9	Kamtarlik va manmanlik	15. O'zingni er bilsang, o'zgani sher bil. 16. Ishtonsiz tizzasi yirtiqqa kular. 17. Uyda chaksa uni yo'q, tom boshida qo'sh tanur.
10	Sabr-qanoat va sabrsizlik	18. Tikonsiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo'lmas, Riyozat chekmaguncha yor vaslig'a yetib bo'lmas. 19. Sabr qilsang, g'o'radin halvo bitar. 20. Besabrlar o'z oyog'idin yitar.

Jadvalda ko'ringanidek, “Zarbulmasal”da uchragan maqollar 10 ta ma'noviy guruhga tasniflandi. Quyida ularning ushbu ma'noviy guruhga kirishga asos bo'luvchi izohlarni keltiramiz.

Tajribakorlik va kaltabinlik ma'noviy guruhiga “Qalovini topsa, qor yonar, qalovini topmasa qoqshol o'tin ham yonmas” maqoli kirishi mumkin. Yetarlicha tajribaga ega inson qorni ham yondira oladi, tajribasiz inson esa



ming puflasa ham qoqshol o'tin yonmaydi. Insonning tajribaga ega ekanligi har qanday sohada asqotadi. Undaylar har qanday vaziyatdan osongina o'tadilar. Tajribasiz insonlar esa to'siqlarga uchraganlarida tez taslim bo'ladilar.


Barcha asarlarda bo'lgani kabi “Zarbulmasal”da ham yaxshilik va yomonlik mavzusi o'ziga xos o'ringa ega. Mazkur asardagi “Yaxshi bilan yurding - yetding balosi yuqar, qozonga yondoshsangiz qarosi yuqar”, “Yaxshi rafiq birla yursang saodat toparsan, yomon rafiq birla yursang shaqovat” va boshqa maqollarda dono xalqimiz bunday turkumdagi maqollardan yaxshi odamlardan jamiyatga foyda tegishini, yomon odamlardan esa ziyon-zahmat yetishini anglatmoqchi bo'lgan. Muallif kishi jamiyatda o'zini qanday tutishi kerakligini, odamlarga yaxshilik qilish zarur ekanligini, yaxshilik qilish yaxshi natija berishini, kishilarga qilingan yomonlik yomon oqibatlariga olib kelishini uqtirmoqchi bo'ladi. Bunday turkumdagi maqollar odamlarni yomonliklardan qaytaradi. Birovga qilingan yaxshilikni unutmoq kerak, ammo bizga qilingan yaxshilikni esda saqlab qolmog'imiz darkor.

Mazkur asarda keltirilgan “Bor maqtansa topilur, yo'q maqtansa chopilur” maqolida “o'ziga yetarli miqdorda mulkka ega bo'lgan odam maqtansa bo'ladi, ammo o'ziga yetarli darajada mulkka ega bo'lmagan odam mavjud bo'lmagan narsasi bilan maqtansa, uyatga qoladi” mazmuni ustunlik qiladi. Demak, maqtanayotganda ham ehtiyotkorlik zarur. Arzirli sabab bilan maqtanish ham bir mardlikdir. Bundan kelib chiqadiki, ushbu maqol maqtanchoqlikni qoralashga qaratilgan.

Or-nomus va nomussizlik ma'noviy guruhiga “Uyat o'limdan qattiq”, “Ermon yog'ochining egilgani - singani, er yigitning uyalgani o'lgani” kabi maqollar kiritildi. Shu jamiyatda yashayotgan inson, avvalambor, odamlar orasida uyaladigan ish qilmasligi kerak. Mabodo kishi uyatga qoladigan ish qilsa, o'zini olib qochishga joy topolmaydi. Bu esa o'limdan ham battar. Eman daraxti juda qattiq daraxt. Uning egilgani singani demakdir. Uyatga qolgan inson singan eman daraxtiga qiyoslanadi.

Mazkur asardagi maqollarning bir nechitasi “O'z aybin bilgan marddir”, “Ota so'rab netarsan erning o'zi bo'lg'on so'ng, yo'l so'ragan nomarddur, otning ustuna ming'an so'ng” - mardlik va nomardlik ma'noviy guruhiga mansub. Mard inson bo'lishga barcha zamonlarda ham jiddiy qaralgan. Agar inson mard bo'lsa, or-nomusli bo'lsa, u el oldida ardoqlanadi. Mard inson qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerakligi haqidagi fikrlar ko'pgina maqol va matallarda o'z o'rnini topgan.

“Er tilagan yerda aziz”, “Oltinning bitgan yerda qadri bor” kabi maqollarni qadr-qimmat va qadsizlik ma'noviy guruhiga kiritdik. Ba'zi insonlar o'zining qadrini hamma narsadan ustun qo'yadi. Oltin azal-azaldan qadri baland metall hisoblanadi. Qadr-qiymat jihatidan oltin insonga tenglashtiriladi. Ushbu maqollar asar matnida maxsus lingvopragmatik vazifa tashigan: muallif maqsadini yorqinroq aks ettirishga yordam bergan.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

“Halvo degan birla og‘iz chuchimas” maqoli kishini shirin orzu-xayollar bilan yaxshi yashashga undaydi, ammo ko‘zlagan maqsadiga, diliga tukkan niyatiga yetishish uchun orzuning o‘zigina yetarli emas. Bularga yetishmoq uchun harakat qilish, jon kuydirib ishlash, yelib-yugurish, bu yo‘lda uchraydigan qiyinchiliklarga chidash, uni yengib o‘tish kerak bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan maqol orqali asarda shu fikrga shama qilingan.

“Zarbulmasal” asarida kamtarlik va manmanlik ma‘naviy guruhiga kiruvchi bir qancha maqollar uchraydi “O‘zingni er bilsang o‘zgani sher bil”, “Ishtonsiz tizzasi yirtiqqa kular”, “Uyda chaksa uni yo‘q, tom boshida qo‘sh tamur”. Asarda kamtarin bo‘lib yashashga ko‘plab chorlovlar bor, chunki maqtanchoqlik, manmanlik eng yomon illatlardan sanaladi. Dono xalqimiz azal-azaldan manmanlikni qoralab kelgan. Bundan ko‘rinadiki, “Zarbulmasal”da manmanlik qoralangan, kamtarlik ulug‘langan.

“Tikonsiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo‘lmas, Riyozat chekmaguncha yor vaslig‘a yetib bo‘lmas”, “Sabr qilsang, g‘o‘radin halvo bitar, Besabrlar o‘z oyog‘idin yitar” kabi sabr-qanoat va sabrsizlik haqidagi talay maqollarda kishining hayotda sabr-toqatli, chidamli bo‘lishi yaxshi, qimmatli fazilat ekanligi ta‘kidlanib, buning aksi yomon oqibatlarga olib kelishi uqtirilgan. Kishini sabr-qanoatli bo‘lishga da‘vat etuvchi maqollar “Zarbulmasal” asarida keng foydalanilgan. Asarda mazkur maqolning qo‘llanilishini kuzatamiz:

Va aytmishlarkim, **“Sabr qilsang, g‘o‘radin halvo bitar, Besabrlar o‘z oyog‘idin yitar”**.


Yapaloqqush aydikim: “Ori, balog‘a sabr, qazoga rozi bo‘lmoqdin o‘zga choram yo‘q, lekin sabrning joyi bilan huzn va anduhdin bo‘lak nimarsasi yo‘q. Sabr qilib, yaxshi ish qo‘ldan ketsa, o‘xshamas”...

Anda Ko‘rqush aydi: “Yomonga o‘lim... muhim xayr ishiga yuborur kishi bu nav bo‘lurmu?”

Ko‘rinadiki, matnda Yapaloqqush va Ko‘rqush tilidan sabr haqidagi fikrlar tahlilga tortiladi.

Gulxaniy qo‘llagan maqollarning ma‘rifiy, adabiy, estetik ahamiyati juda katta. Ilmiy adabiyotlarda bu borada ancha jiddiy va salmoqli gaplar aytilgan. Alohida ta‘kidlash joizki, ularning ilmiy ahamiyati ham juda katta. Xususan, folklorshunoslik uchun ularning o‘z davridagi holati va qo‘llanish sohasi, ayrim maqollarning versiya va variantlari haqida ham boy tasavvurlar uyg‘ota oladi.

Xulosa qilib aytganda, Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida qo‘llangan maqollar badiiy matnning muhim poetik unsuri sifatida namoyon bo‘ladi. Ularni ma‘no jihatidan guruhlarga ajratish asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, maqollar axloqiy, ijtimoiy va didaktik yo‘nalishlarda namoyon bo‘lib, har bir guruh asar poetikasida muayyan funksional yuklamani bajaradi. Shuningdek, maqollar orqali muallif jamiyatdagi ijtimoiy illatlarni tanqid qiladi hamda



O‘ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

muayyan axloqiy xulosalarni umumlashtirilgan badiiy shaklda ifodalaydi. Bu esa maqollarning asardagi g‘oyaviy-estetik yaxlitlikni ta‘minlovchi muhim komponent ekanligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, “Zarbulmasal” asarida maqollar ma’no va badiiylilik uyg‘unligida qo‘llanib, muallifning badiiy tafakkuri, xalqona ruh va ijtimoiy-estetik qarashlarini yorqin ifodalashga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kodirova S. “Zarbulmasal” maqollari: semantik-struktural va tadrijiy takomilning qiyosiy tahlili. Nomzodlik diss.avtoreferati. – Buxoro, 2023.
1. Abdullayev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob. – T.: O‘qituvchi, 1967. – 883 b.
2. Gulxaniy. Zarbulmasal. Nashrga tayyorlovchi: S. Dolimov. – T.: O‘qituvchi, 1972. – 56 b.
3. O‘zbek klassik she’riyati janrlari. O.Nosirov, S.Jamolov, M.Ziyoviddinov. (Pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari studentlari uchun) N.Mallayev tahriri ostida. – T.: O‘qituvchi, 1979.
4. Is’hoqov F. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari. – T.: Fan, 1976. – 230 b.

